ISNN 3030-3907

2025/4
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

YASHIRIN IQTISODIYOTNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI: XALQARO TAJRIBA TAHLILI

Toshev F.Z.
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
Abdumalikova H.
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi

Annatatsiya. Yashirin iqtisodiyot rasmiy statistikaga kiritilmagan iqtisodiy faoliyat turlarini anglatadi va davlat byudjeti, mehnat bozori hamda investitsiya muhitiga sezilarli tasir ko'rsatadi. Ushbu maqola turli mamlakatlar iqtisodiyotiga yashirin iqtisodiyotning tasirini xalqaro tajriba asosida tahlil qiladi va O'zbekiston uchun muhim xulosalarni ishlab chiqadi. Tadqiqotda tahliliy, taqqoslash va statistik usullardan foydalanilgan. Tadqiqot bir nechta mamlakatlar malumotlarini taqqoslaydi.

Kalit so'zlar: yashirin iqtisodiyot, norasmiy bandlik, soliqdan bo'yin tovlash, soliq tushumlari, qat'iy soliq siyosati, raqamlashtirish, ortiqcha soliq yuki, yashirin iqtisodiyot ko'lami, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish.

Аннотация. Скрытая экономика — это виды экономической деятельности, не включенные в официальную статистику и оказывающие существенное влияние на государственный бюджет, рынок труда и инвестиционный климат. В данной статье анализируется влияние скрытой экономики на экономику разных стран на основе международного опыта и формулируются важные выводы для Узбекистана. В исследовании использованы аналитические, сравнительные и статистические методы. В работе сравниваются данные нескольких стран.

Ключевые слова: скрытая экономика, неформальная занятость, уклонение от уплаты налогов, налоговые поступления, жесткая налоговая политика, цифровизация, чрезмерное налоговое бремя, масштабы скрытой экономики, сокращение доли скрытой экономики.

Abstract. The hidden economy comprises economic activities not included in official statistics and having a significant impact on the state budget, labor market, and investment climate. This article analyzes the impact of the hidden economy on the economies of various countries based on international experience and draws important conclusions for Uzbekistan. The study utilizes analytical, comparative, and statistical methods, comparing data from several countries.

Keywords: hidden economy, informal employment, tax evasion, tax revenues, strict tax policy, digitalization, excessive tax burden, scale of the hidden economy, reduction in the share of the hidden economy.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

Ma’lumki, yashirin iqtisodiyot iqtisodiyotning kuzatilmaydigan yoki yashiriladigan, noqonuniy asosga ega tarkibiy qismidir. Yashirin iqtisodiyot faoliyat – qonunlar, tartiblarni chetlab o‘tgan holda soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lamasdan, noqonuniy foyda olishga yoki foydani oshirishga yo‘naltirilgan harakatlar majmuasidir. Yashirin iqtisodiyot jamiyatda davlat boshqaruvi shakllanishining dastlabki davrlaridan boshlab mavjud bo‘lib, hozirgi vaqtga kelib dunyoning barcha mamlakatlari uchun dolzarb muammoga aylangan. Yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi miqyoslari har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-iqtisodiy holatiga va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish xususiyatlariga bog‘liqdir. Shuning uchun har bir mamlakat iqtisodiyotida yashirin iqtisodiyotning o‘rni va roli ham turlichadir.

Yashirin iqtisodiyot davlat nazoratidan tashqarida qoladigan iqtisodiy faoliyatlarini o’z ichiga oladi, jumladan soliqdan bo’yin tovlash, norasmiy bandlik va noqonuniy savdo. Jahon banki (WB) va Xalqaro valyuta jamg’armasi (IMF) 2023 yil malumotlariga ko’ra ayrim mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot YAIM ning 30-40% ni tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda u asosan noqonuniy moliyaviy operatsiyalar shaklida namoyon bo’lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda norasmiy bandlik va soliqdan bo’yin tovlash ko’proq uchraydi. O’zbekiston ham yashirin iqtisodiyot bilan bog’liq muammolarga duch kelayotgan mamlakatlardan biridir. Hukumat elektron soliq tizimlarini joriy etgan va biznes muhitini yaxshilash bo’yicha chorlar ko’rgan, biroq muammo hanuzgacha dolzarb bo’lib qolmoqda.

Natijalar shuni ko’rsatadiki, yashirin iqtisodiyot davlat budjeti daromadlariga sezilarli tasr ko’rsatadi. Shubhasiz u soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi, fiskal barqarorlikka xavf tug’diradi va ayrim hollarda iqtisodiy inqirozlarga ham sabab boladi. Rasmiy statistika bir qator mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning iqtisodiy ko’rsatkichlariga tasirini tasdiqlaydi. Amalga oshirilgan islohotlarni tahlil qilish samarali qarshi choralar bo’yicha muhim xulosalar beradi.

Yevropa ittifoqi (OECD)ning 2022 malumotlariga ko’ra Yevropa mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot YAIM ning taxminan 10-15 foizini tashkil etadi va iqtisodiy jihatdan barqaror davlatlarda bu korsatkich pastroq.

Germaniya va Fransiya qat’iy soliq siyosati hamda raqamlashtirish orqali bu ulushni 10 foizidan past darajaga tushirishga muvaffaq bo’lgan. Germaniyada soliq organlariga tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilgan bu esa noqonuniy moliyaviy operatsiyalar ulushini kamaytirgan. Fransiyada naqd pul operatsiyalariga qat’iy cheklovlar joriy etilib yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun raqamli to’lov tizimlari keng targ’ib qilingan. Bunday yondashuvlar Yevropa ittifoqi bo’ylab davlat

ISSN 3030-3907

daromadlarining oshishiga va investitsiya muhitining yaxshilanishga xizmat qilgan.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF)ning 2023 yil malumotlariga ko'ra Rossiyada yashirin iqtisodiyot YAIM ning qariyb 30 foizini tashkil etadi, natijada har yili taxminan 50 milliard dollar miqdorida byudjet yo'qotishlari yuzaga keladi.

•2022 yil holatiga ko'ra Rossiyaning mehnatga layoqatli aholisining 35 foizdan ortig'i norasmiy sektorda band.

•Rossiya markaziy banki va hukumatning noqonuniy kriptovalyuta operatsiyalari, soliqda bo'yin tovlash sxemalari hamda ro'yxatdan o'tmagan tadbirkorlik faoliyatini cheklashga qaratilgan turli islohotlarni amalga oshirgan.

Biroq yuqori darajadagi korrupsiya va ortiqcha soliq yukining mavjudligi yashirin iqtisodiyotni sezilarli darajada qisqartirishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek Hindiston iqtisodiyotning taxminan 40 foizi norasmiy sektor doirasida faoliyat yuritadi.

Tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashirin iqtisodiyotning ko‘lami rivojlangan mamlakatlarda birmuncha kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirayotgan sobiq ittifoq mamlakatlarda kengdir. Shu boisdan yashirin iqtisodiyotning mohiyati, vujudga kelish va rivojlanish sabablarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini, uning ko‘lamlarini keskin kamaytirish, unga qarshi kurash masalalarini o‘rganish, tadqiq qilish barcha davlatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Yashirin iqtisodiy faoliyat odatda rasmiy hisob-kitob va davlat nazorati tizimidan tashqarida amalga oshiriladigan jarayonlar majmuasini anglatadi. U doimiy ravishda shaklan va mazmunan o‘zgarib, yangi ko‘rinishlarga ega bo‘lib boradi, nazorat mexanizmlarini aylanib o‘tish usullari takomillashadi hamda turli iqtisodiy kanallar orqali amalga oshiriladi. Bunday sharoitda korrupsion munosabatlar yashirin iqtisodiy operatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan, korrupsiya va xo‘fyona iqtisodiyot o‘zaro bog‘liq tizimiy hodisalar bo‘lib, ularning ildizi ko‘p hollarda ortiqcha ma'muriy to‘siqlar va institutsional kamchiliklarga borib taqaladi. Natijada ushbu jarayonlar milliy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi.

Jahon xo‘jalik tizimining ajralmas qismi bo‘lgan Uzbekistanda ham iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qonuniy maydonga olib chiqish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Biroq ko‘rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, yashirin sektor ulushi ma'lum darajada saqlanib qolmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga bag‘ishlangan muhokamalarda ham yashirin

ISSN 3030-3907

iqtisodiyot halol faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun adolatsiz raqobat muhitini shakllantirayotgani ta’kidlanadi. Bu holat rasmiy iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilib, davlat moliyaviy resurslarining to‘liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotdan 2025 yilda davlat byudjetiga 30 trln. so‘m, yalpi ichki mahsulotga 135 trln. so‘m zarar yetkazilgan. Deyarli 11 mingta korxona (41 foiz) hisobotlarida faqat 1 kishini ishchi sifatida ko‘rsatgan.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish ishlari samarasi pastligiga sabablardan biri, yashirin iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatining muvofiqlashtirish tizimining yo‘qligi hisoblanadi. Hozirda iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun mas’ul idoralar soni respublikada 14 ta bo‘lib, ular faoliyatini muvofiqlashtirish tizimi mavjud emas.

Yashirin iqtisodiyotning shakllanishi va kengayishiga turli xil iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy-siyosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni tizimli ravishda tahlil qilish va bosqichma-bosqich bartaraf etish orqali har qanday mamlakatda norasmiy sektor ulushini kamaytirish, korrupsion xavflarni pasaytirish hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash imkoni yuzaga keladi.

Xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida raqamli transformatsiya jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish iqtisodiy munosabatlarni shaffoflashtirish, davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va inson omili ta’sirini qisqartirish orqali samaradorlikni oshiradi. Korrupsiyaga qarshi kurashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijobiy natija bergani amaliyotda isbotlangan. Shuningdek, elektron hisob-kitob, onlayn nazorat va ma’lumotlar integratsiyasi kabi zamonaviy mexanizmlar yashirin iqtisodiy operatsiyalarni cheklash va ularning tarqalishini oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mamlakatimizda ham yashirin iqtisodiyot ko‘lamini aniqlash va qisqartirish bo‘yicha ko‘plab islohotlar amalga oshirilib, ushbu dolzarb muammo kun tartibida bo‘lib turibdi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021 yil 10 sentyabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022 yil 24 martdagi “Jahon banki ishtirokidagi “Soliq ma’muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida “Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 8 apreldagi «2025-2030

ISSN 3030-3907

yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga oid vazifalar aniq belgilab berilgan.

O‘tgan davr mobaynida biznesni legallashtirish va soliq yukini pasaytirish evaziga yashirin iqtisodiyot hajmini pasaytirish maqsadida qo‘shilgan qiymat soliq stavkasi 3 foizga, ijtimoiy soliq stavkasi 50 foizga pasaytirildi. Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini keskin qisqartirish va soddalashtirish biznesni soyadan chiqarish omillaridan hisoblanadi. Shu maqsadda 2024 yil 1 martdan 7 turdagi litsenziyalar bekor qilinmoqda, 12 turdagi ruxsat berish tartiblari birlashtirilmoqda va 3 xil faoliyat turi bo‘yicha litsenziyalash xabardor qilish tartibiga o‘tqazilmoqda.

Tahlillarimizga ko‘ra, 2019 yilda yashirin iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,11 foizni tashkil etgan bo‘lsa, olib borilgan islohotlar natijasida 2025 yilda uning ulushi 35 foizgacha qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda asosan 2019-2022 yillarda olib borilgan soliq-bojxona islohotlari, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi chora-tadbirlar, biznesni qo‘llab-quvvatlash va aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan maqsadli tashabbuslarning amalga oshirilganligi va raqamli transformatsiyalarning keng ko‘lamda joriy etilayotgani sabab bo‘lmoqda.

Bizning fikrimizcha, yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

– soliq va bojxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarayotgan soliq to‘lovchilarni rag‘batlantirishning aniq va shaffof mexanizmlarini shakllantirish;

– soliq hamda bojxona ma’muriyatchiligini to‘liq raqamli formatga o‘tkazish orqali ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirish va inson omilini minimallashtirish;

– mehnat munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, qonun hujjatlari ijrosini ta’minlash maqsadida doimiy komplaens-nazorat tizimini joriy etish;

– ijtimoiy ta’minot tizimini modernizatsiya qilish, norasmiy sektorda faoliyat yuritishga iqtisodiy manfaatdorlikni pasaytiruvchi rag‘batlantiruvchi va cheklovchi mexanizmlarni ishlab chiqish;

– mehnat qonunchiligi talablariga rioya etmagan sub’ektlarga nisbatan samarali javobgarlik choralarini qo‘llash bilan birga, halol ish beruvchilar uchun tartib-taomillarni soddalashtirish, xodimlar hisobini yuritish va nazorat qilish tizimini raqamlashtirish, korxonalarda samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)ni joriy etishni rag‘batlantirish;

ISSN 3030-3907

– naqd pul aylanmasini cheklash maqsadida savdo operatsiyalari uchun belgilangan maksimal limitlarni joriy etish;

– moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va kuzatuvchanligini ta’minlash uchun zamonaviy texnologiyalar, jumladan blokcheyn yechimlaridan foydalanish;

– aholining moliyaviy, huquqiy va raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha keng qamrovli axborot-ta’lim dasturlarini amalga oshirish, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali yashirin iqtisodiyotning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish;

– yashirin iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida xabar beruvchi shaxslarni huquqiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish;

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda buxgalteriya hisobi yuritilishini takomillashtirish, ichki nazorat tizimini qayta ko‘rib chiqish va uning samaradorligini oshirish.

Ushbu chora-tadbirlarni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish norasmiy sektor ulushini kamaytirish, iqtisodiy munosabatlar shaffofligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ТОШЕВ, Ф. СУЩНОСТЬ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ И ЗНАЧЕНИЕ ЕГО ОПТИМИЗАЦИИ. ЦПП ИД" БелГУ" НИУ" БелГУ", Белгород Белгородский государственный национальный исследовательский университет, Белгород КОНФЕРЕНЦИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ Белгород, 25 октября 2024 года Организаторы: Министерство науки и высшего образования РФ, Москва Белгородский государственный национальный исследовательский университет, Белгород.

2. Toshev, F. Z., & Qurbonova, X. B. (2024). IQLIM O’ZGARISHINING ATROF MUHITGA TA’SIRI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(1), 260-264.

3. ТОШЕВ, Ф. З., & ПУЛАТОВ, Ш. Ш. Оптимизация налогового бремени в условиях модернизации экономики Узбекистана. ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА Учредители: ООО" Институт развития образования и консалтинга, 10, 58-62.

ISSN 3030-3907